

KOREYS TILIDA KO'MAKCHILARNING ILMIY TALQINLARI VA TASNIFLARI

Muxtorov Abdumalik Egamberdiyevich

SamDCHT koreys filologiyasi doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koreys tilidagi ko'makchilarning kelib chiqishi, tuzilishi va koreysshunoslikda ko'makchilar haqidagi ilk tushunchalar o'rin olgan. Bundan tashqari koreys olimlarining ko'makchilar shu bn birgalikda yordamchi so'z turkumlari haqidagi qarashlari va tariflari o'rin olgan.

Аннотация: В данной статье представлены происхождение и структура вспомогательных слов корейского языка, а также первые представления о Служебные слова в корееведении. Кроме того, включены мнения и оценки корееведов о вспомогательных словах и группах вспомогательных слов.

Abstract: In this article, the origin and structure of Korean language auxiliaries and the first concepts about auxiliaries in Korean studies are presented. In addition, the opinions and tariffs of Korean scholars about auxiliaries and auxiliary word groups are included.

Ключевые слова: Служебные слова, 후치사, союзы, глаголы несовершенного вида, грамматическая задача, 목적조사 вспомогательные прилагательные, существительные несовершенного вида.

Koreys tili ko'makchilari haqidagi mavzularni shu kunga qadar Li Sung Vuk (1957), Li Sung Nyong(1981), Ryu Gu Sang(1983), So Jong Su(1994), Lim Dong Hun(2004), Ko Chang Su(1987, 2012) kabi tilshunoslar ko'rib chiqishgan. Li Sung Nyong (1981)da ko'makchi mustaqil bo'lmagan so'z otga ergashgan qo'shimcha ekanligini takidlagan bo'lsa, Li Sung Vuk (1957) ko'makchilarni tuzilishi va turlari haqida tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, Ryu Gu Sang (1983) tadqiqoti koreys tilida ko'makchi tuzatilishidagi muammolarimi ochib bergan bo'lib, uning fikricha uning fikricha ko'makchi mavzusida hali ochib berilmagan muommolar ko'pligi ,ya'ni ko'makchi hali butunlay grammatikatsiyalashmagani ko'makchilarni mustaqil so'z turkumi sifatida o'rganishda hali o'rganilmagan nuqtalari borligini aytib o'tgan.

Quyidagi Li Sung Vuk (1957)da ko'rib chiqqan ko'makchilarning xususiyati va funksiyalarini quyidagicha aytib o'tgan.¹

1. Ko'makchi frazalogik tuzilishiga ega bo'lib, qo'shimcha ma'no beradigan (바다 만큼 넓어라 Dengiz kabi keng) xususiyati bor bo'lib, ko'makchi 체언 ga (ot, son, olmoshga) qo'shiladi.
2. Odatda otlar, olmoshlar, sonlar va otlashgan so'zlardan keyin keladi.
3. U o'zidan oldin kelgan butun gapni ma'zmunini boshqaradi.

¹ 한국어 후치사와 중국어 개사의 문법특성 대조연구 2017년 12월 송실대학교 대학원 국어국문학과 왕정 12 bet

4. Kelib chiqishi jihatidan mustaqil so'z turkumlaridan kelib chiqishi mumkin.
5. U gapda ega bo'lib kelolmasligi mumkin,lekin ikkinchi darajali bo'lak bo'lib kela oladi.²

Li Sung Vuk (1957)ning fikrlarini Li Sung Nyong(1981) ham tasdiqlagan.Faqat bir nechta o'z fikrlarini aytib o'tgan.

- 1.동사, 명사 같은 실사에서 발달하여 그 구실이 격과 비슷하게 된 것이다.
Fe'l va ot asosidan kelib chiqib rovojanib, ular bilan bir xil vazifani bajaradi.
- 2.앞이나 뒤에서 어간과의 사이 격을 가질 수 있다.
Old va orqadagi 2 ta asosni bog'laydigan qo'shimcha vazifasini bajaradi.
3. 앞말의 형태의 영향을 받지 않는다. 즉 어간모음과의 관계인 모음조화와 규칙 같은 제약을 받지 않는다.즉 형태에 아무런 변모를 가질 수 없다.

Koreys tilida oldindagi harf unli va undoshligiga qarab asosga qo'shiladigan qo'shimchalarni shakli o'zgaradi.Lekin ko'makchilarda bunday holat kuztilmaydi va ma'nosida ham hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi.

4. 후치사가 글에서 제거되면 문장이 성립되지 않든지 글의 뜻이 바뀐다.
Ko'makchi matndan o'chirilsa gap tuzilmasi o'zgaradi, mazmuni shakllanmaydi.

- 5.후치사는 격과 같은 구실을 함이 일반이다.

Ko'makchi kelishik qo'shimchalari bilan bir xil vazifani bajaradi.

Li Sung Nyong (1981) va Li Sung Vuk (1957) kelishiklar va ko'makchilarning gap tarkibida boshqa so'z turkumdagi so'zlarga bog'lanishlarini tushuntirib bergan. Li Sung Nyong (1981) da kelishiklarni bog'lovchi qo'shimcha,ko'makchilarni esa yordamchi qo'shimcha deb takidlab o'tgan. Shundan keyin ham tadqiqotlar davom etib An Pyong Hvi (1965), Li Sung Vuk (1966), Hung Sa Man(1974, 1975, 1976) lar ham gap strukturaviy tuzilishida ko'makchilarning grammatik o'rmini tadqiq qilgan .³

Koreys tilida ko'makchilar: 1. Ko'makchilar yakka holda gap tarkibida ma'no anglatmaydi.

2. Ko'makchilar joylashuvda bir-biriga qo'shilganda ma'lum bir qoida yuq, lekin ba'zi vaziyatda ko'makchilar joylashuvida bir-biriga qo'shilishi yani 2 ta ko'makchi yonma -yon kelishi mumkin. Masalan: "까지보다" va hokazo. (까지 gacha, 보다 qaraganda -gacha qaraganda bo'lib ikki ko'makchi yonma yon kelgan).Shuningdek koreys tilida ko'makchilar oldidan 부사격조사 "에, 에서 -da,dan", 공동격조사 "하고 -va,bilan", ortidan esa 주격조사 "이/가,께서 bosh kelishik", 목적조사 "을/를 -ni" 소유격조사 "의 -ning" va boshqa qushimchalar kelishi mumkin.

3. Koreys tilida ko'makchi ega yoki to'ldiruvchining ortidan unga ergashgan (주격조사 "이/가,께서 bosh kelishik) va (목적조사 "을/를 -ni) ba'zan (부사격조사 "에, 에서 -da,dan) rolini

² 한국어 후치사와 중국어 개사의 문법특성 대조연구 2017년 12월 송실대학교 대학원 국어국문학과 왕정

³ 한국어 후치사와 중국어 개사의 문법특성 대조연구 2017년 12월 송실대학교 대학원 국어국문학과 왕정

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

bajaradi. Koreys tilida ko'makchilar gapda qisqargan holda kelishi mumkin, lekin tuzilish tizimiga katta ta'sir ko'rsatmaydi.

4. Koreys tilida ko'makchilar fe'lli birikmalar bilan bog'lana oladi. Masala: fe'lning otlashgan shakli "-기, 는 것", fe'lning ravishdosh shakli "-게", shuningdek fe'lning bog'lovchi shakli "-(으)면서, -고" va boshqalar bilan bog'lana oladi.

5. Koreys tilida ko'makchilar asosan kesimdan oldin keladi. Lekin bu holatda gapda ega bilan to'ldiruvchining joyi o'zgarib qoladi. Masalan: **U hattoki koreys harflarini ham o'qiy olmaydi** gapini ko'rib chiqsa koreys tilida mana bunday yoziladi: 한글조차도 그는 못 읽는다. Yani **Koreys tilini ham hattoki u o'qiy olmaydi** deb tarjima qilinadi.⁴

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Л.И.Николский Служебные слова в корейском языке Москва 1962. С 5
2. А.Б.Пардаев Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси Тошкент 2017
3. Ю.Н.Мазур Корейский язык 1960
4. 태학사 최재희 국어문법론, 2004.
5. 주 시경 유고집, 평양, 1957

⁴⁴ 한국어 후치사와 중국어 개사의 문법특성 대조연구 2017년 12월 송실대학교 대학원 국어국문학과 왕정